

# **Yevropa kompozitorlarida ijro uslublarining murakkab stilistik kompozitsiyalari texnologiyasi**

Nozima Qudratovna Nurullayeva  
Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at maktabi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Yevropa akademik musiqa an'anasi dagi murakkab stilistik kompozitsiyalarning ijro uslublari va texnologiyalarini tahlil qiladi. Barokko davridan to zamonaviy davrga qadar kompozitorlar tomonidan qo'llanilgan turli uslublar, texnikalar va ularning rivojlanish tarixi ko'rib chiqiladi. Maqlada kompozitsiya texnologiyalarining ijro amaliyatiga ta'siri, ijrochilik san'atining rivojlanishi hamda musiqiy asarlarning interpretatsiya xususiyatlari muhokama qilinadi. Shuningdek, mualliflik uslubi, milliy maktablar an'analari va zamonaviy texnologiyalarning klassik musiqa ijrochiligi bilan o'zaro aloqasi tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** kompozitsiya texnologiyasi, ijro uslublari, stilistik sintez, interpretatsiya, Yevropa musiqasi, akademik an'analar, polifoniya, garmoniya, faktura, musiqa estetikasi

## **Technology of complex stylistic compositions of performance styles in European composers**

Nozima Kudratovna Nurullayeva  
Bukhara Specialized Art School

**Abstract:** This article analyzes the performance styles and technologies of complex stylistic compositions in the European academic music tradition. Various styles, techniques used by composers from the Baroque period to the modern era and the history of their development are considered. The article discusses the influence of composition technologies on performance practice, the development of performing art, and the interpretation features of musical works. The author's style, the traditions of national schools, and the interaction of modern technologies with classical music performance are also analyzed.

**Keywords:** composition technology, performance styles, stylistic synthesis, interpretation, European music, academic traditions, polyphony, harmony, texture, musical aesthetics

Yevropa musiqasi tarixida kompozitsion texnologiyalar va ijro uslublari o'rta sidagi munosabatlar hamisha murakkab bo'lib kelgan. Turli davrlar, maktablar va

individual kompozitorlarning uslublari nafaqat o‘z davrining estetik tamoyillarini, balki texnik imkoniyatlarini ham aks ettirgan. Kompozitorlarning ijodiy g‘oyalari va uslubiy izlanishlari ijrochilik san‘atining yangi imkoniyatlarini ochib bergen, bu esa o‘z navbatida kompozitsion texnikaning yanada rivojlanishiga turtki bo‘lgan.

Barokko davri (1600-1750) kompozitsiya texnologiyasining eng muhim jihatlaridan biri polifonik murakkablik va improvizatsion bezaklarning keng qo‘llanilishi bo‘lgan. I.S.Bax, A.Vivaldi, G.F.Gendel kabi kompozitorlar asarlarida kontrapunkt, fuga va kanon kabi polifoniya texnikalaridan mohirona foydalanganlar. Ijrochilar esa notada ko‘rsatilmagan, ammo davr an‘analariga ko‘ra ijro etiladigan trillalar, mordentlar va boshqa bezak elementlarini qo‘sishlari talab qilingan.

Barokko davrining muhim kompozitsion usullaridan biri "basso continuo" bo‘lib, buakkordlar ketma-ketligini raqamlar bilan belgilash orqali ijrochiga garmonik tuzilishni ko‘rsatish usuli edi. Bu ijrochiga muayyan cheklovlar doirasida improvizatsiya qilish imkoniyatini bergen.

#### Klassitsizm davri: Shakl aniqligiga intilish

XVIII asrning o‘rtalaridan boshlab Vena klassik maktabi (Haydn, Motsart, Betxoven) sonata shaklining rivojlanishi va simfonik orkestr imkoniyatlarining kengayishi bilan bog‘liq yangi kompozitsion texnologiyalarni rivojlantirdi. Bu davrda kompozitsiya aniq shakl qonuniyatlariga bo‘ysundirilgan, ammo shu bilan birga ekspressiv ifodaviylikka erishilgan.

Ijro uslubida esa deklamatsion ifodalilik, dinamik kontrast va artikulyatsiya aniqligiga alohida e’tibor qaratilgan. Fortepiano cholg‘usining keng tarqalishi klavishali cholg‘ularda dinamik imkoniyatlarning sezilarli darajada kengayishiga olib keldi, bu esa kompozitorlarga yangi ifoda vositalaridan foydalanish imkonini berdi.

#### Romantizm davri: Individual uslub va milliy maktablar

XIX asrda kompozitsion texnologiyalar yo‘nalishida inqilob sodir bo‘ldi. Chopin, Shuman, List, Vagner kabi kompozitorlar garmoniya, faktura va cholg‘ulashtirish sohasida jiddiy o‘zgarishlar kiritdilar. Garmonik tilda xromatizm, alteratsiyalar va modulyatsiyalarning keng qo‘llanilishi, fakturada yangi usullar, cholg‘u imkoniyatlarining kengayishi kompozitorlarga o‘zlarini yanada erkin ifoda etish imkonini berdi.

Bu davrda milliy maktablar shakllanib, har bir milliy maktab o‘ziga xos kompozitsion texnologiyalar va ijro uslublarini rivojlantirdi. Masalan, rus maktabida (Glinka, Moguchaya kuchka kompozitorlari, Chaykovskiy) xalq musiqasi elementlaridan foydalanish, fransuz maktabida (Berlioz, Sen-Sans, keyinchalik Debussi) membr va garmoniya imkoniyatlarini kengaytirish, Shimoliy Yevropa maktablarida esa mahalliy folklorga asoslangan kompozitsion texnikalar rivojlandi.

#### XX asr: Avangard texnologiyalar va ularning ijrodagi aks etishi

XX asr boshida kompozitsion texnologiyalar tubdan o‘zgardi. Shotenbergning o‘n ikki tonli seriya texnikasi, Vebern va Berg asarlarida punktualizm, Stravinkiy va Bartok asarlarida poliritmika va politonallik, Messian asarlarida ladlar va ritmlarning yangi tizimi, Ksenakis va Ligetining sonoristika va klasterlar texnikasi kabi yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi.

Bu murakkab kompozitsion texnologiyalar ijrochilardan yangi malakalar va yangicha estetik yondashuvlarni talab qildi. Notatsiya ham o‘zgardi - an’anaviy besh chiziqli nota yozuvi yangi belgilar va grafiklar bilan to‘ldirildi, ba’zan esa mutlaqo yangi notatsiya tizimlari qo‘llanila boshlandi.

#### Zamonaviy tendensiyalar: Texnologiya va an’analar sintezi

Bugungi kunda kompozitsion texnologiyalar juda xilma-xil bo‘lib, ular ko‘pincha turli davrlar va uslublarning sintezini o‘z ichiga oladi. Elektron va kompyuter texnologiyalari bilan an’anaviy kompozitsion usullar va ijro texnikalarining birlashishi yangi imkoniyatlar yaratmoqda. "Historically informed performance" (tarixiy jihatdan xabardor ijro) harakati esa kompozitorlar yaratgan asarlarni ularning davridagi cholq‘ular va ijro amaliyotiga muvofiq talqin qilishga intiladi.

Yevropa kompozitorlari ijodida ijro uslublarining murakkab stilistik kompozitsiyalari texnologiyasi muhim o‘rin tutadi. Barokko, klassik, romantik va zamonaviy davrlarda har bir kompozitor o‘ziga xos musiqiy til va texnik yondashuvni shakllantirgan. Masalan, Bach asarlarida polifonik uslub ustun bo‘lib, har bir ovoz mustaqil harakatlanadi va bu ijrochidan yuqori darajada koordinatsiya va tafakkurni talab qiladi. Mozart va Haydn kabi klassik kompozitorlarda esa aniq shakl, balans va ohangdorlik muhim rol o‘ynaydi. Romantik davrda, Chopin, Liszt yoki Schumann asarlarida esa emotsional ifoda, dinamik o‘zgarishlar va murakkab faktura asosiy texnik vositalardan hisoblanadi. Bu uslublarni to‘g‘ri talqin etish uchun ijrochi har bir davrga xos bo‘lgan artikulyatsiya, pedal texnikasi, frazalash va tempni to‘g‘ri his etishi zarur. Zamonaviy kompozitorlar esa atonal, serial va eksperimental texnologiyalarni qo‘llab, ijrochi oldiga yangi talablar qo‘yadi. Umuman olganda, Yevropa kompozitorlarining murakkab stilistik kompozitsiyalari musiqa san’ati rivojida chuqur ilmiy va amaliy yondashuvni talab etadigan muhim jarayondir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki. Yevropa kompozitorlarining ijro uslublaridagi murakkab stilistik kompozitsiyalari texnologiyasi asrlar davomida murakkablashib, boyib bordi. Bu jarayon kompozitorlar, ijrochilar va tinglovchilar o‘rtasidagi doimiy muloqot natijasida shakllandi. Kompozitsion texnologiyalarning rivojlanishi ijrochilik san’atini boyitdi, ijrochilik san’atining yangi imkoniyatlari esa kompozitorlarni yanada murakkab va ifodali asarlar yaratishga ilhomlantirdi.

Zamonaviy davrda bu ikki soha o‘rtasidagi munosabatlar yanada murakkablashib, bir-biriga ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda. Kompozitorlar va ijrochilar o‘rtasidagi hamkorlik an’anaviy chegaralardan chiqib, ijod jarayonining turli bosqichlarida bir-

birini to‘ldiruvchi roljlarga aylanmoqda. Bu esa musiqa san’atining yangi qirralarini olib, uni yanada boyitmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.G Nurullayev, Firdavs To‘xtayev-musiqiy tovushlarining xususiyatlari tendentsiyalari. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024/12/1,Tom-2,12, 8-15 betlar.
2. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich, X.G Saidovna. Formation of spiritual and moral education of students through the means of uzbek folk songs. International journal of artificial intelligence ISSN: 2692-515X.
3. Xujayev Dilmurod Bakiyevich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- Mavrigi va Buxorcha konseptsiyasi tamoyillari buxoroda qaror topishi, International journal of scientific researchers (IJSR) indexing, 2024/4/30,Tom-5,1, 515-520 betlar
4. D.M Yusupovich, N.F. Gaybulloyevich- Milliy Musiqa San’ati Ravnaq Topishida O ‘Zbek Folklorining O ‘Rni Va Ahamiyati- Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 2024/2/6, Tom-2,2, 4-8 betlar
5. Egamov Oxunjon Saidovich Nurullayev F.G- Buxoro vohasi folklor qo‘shiqlari o‘zbek xalqining boy merosi sifatida, Confrencea - Virtual International Conferences, “International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education.” Vol. 1 No. 1 (2024)
6. Istatov Muhriddin Qaxramonovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich-Musiqiy tovushlarning psixologik xususiyatlari va cholgu asboblarida jor bolish uslublari. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://confrencea.org> January 30th, 2024, Confrencea 1 (1),74-78
7. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. Skripka cholg‘u asbobiga bir nazar. Pedagogs international research journal| pedagogs | ped | volume-76 | issue-1(2025)
8. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. Musiqa to‘garaglarini shakllantirish va rivojlanirishga oid nazariy-pedagogik hamda psixologik asoslar. Лучшие интеллектуальные исследования| international scientific journal . Vol. 39 No. 1 (2025)
9. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich .O‘quvchilarga bolalar folklor qo‘shiqlarini o‘rgatishning pedagogik asoslari. Vol. 75 No. 1 (2025): Pedagogs international research journal | pedagogs | ped | volume-75 | issue-1.
10. Sayfullayev Sanjarbek Sadullayevich/ Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. Folklor qo ‘shiqlarining o ‘ziga xos xususiyatlari. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://confrencea.org> January 30th, 2024

11. Rustamov Feruz Tavakkal oglı, & Nurullayev Farrukh Gaybulloyevich. Education of a child by music in the early period of life. (2023).Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 22, 29-34.Retrieved from <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/863>
12. Usmanov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrukh Gaibulloyevich. the role of music culture lessons in the growth of the consciousness of the student youth and national thinking. (2023). Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 1(4), 5-9.
13. Usmonov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. O'Quvchilarni Ma'naviy-Axloqiy Shakllantirishda O'zbek Xalq Qo'Shiqlari Ahamiyati. Progress Annals: Journal of Progressive Research|Vol. 1 No. 8 (2023): Progress Annals.Published: 2023-12-06
14. X.M.Ashurmuxamadovna, N.F.Gaybulloyevich Maktabgacha yoshdag'i bolalarning musiqiy faoliyati. (2023). Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(4), 14-19. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/282>
15. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. "O'zbek musiqasi tarixi" fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar. Ilm-fan va texnologiyalar. 2023 №2(1) Наука и технологии
16. Habibullayeva G.H.,Nurullayev F.G. O'zbek folklor qoshiqlarining bolalar tarbiyasidagi ahamiyati. Inter education & global study 2023
17. Z.X Xamrayev, F.G Nurullayev - O 'zbek estrada san'atining xalq madaniy hayotida tutgan o 'rni - Экономика и социум, 2023 № 4-2 (107) стр 325-328
18. Hamdamova Sitora Rustamova, Nurullaev Farrukh Gaibullayevich-Music as a tool for raising children early life.Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development.2022/11/29 Vol.9, 422-427
19. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев-Значение Фольклёрной Музыки В Воспитание Детей.Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities.2022/11/24. Vol 12. 189-193
20. Rahmonova Hojibuvi Rizojon Qizi, Nurillayev Farrux-Musiqaning inson ruhiyatiga tasiri qadimgi dunyo olimlarining qarashlarida. Ta'lif fidoyilari, OOO «Research and publications» 2022.Vol 24,№ 45, 73-83
21. Madaminova Muyassarxon, Nurullayev F.G.-Umumiy órta ta'lif matablarida musiqa tarbiyasi.Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)2022 Special issue,130-134, OOO «The future of a new day»
22. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев- Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса. SCIENTIFIC PROGRESS.2021.Vol 2, №4(pp. 588-593)

23. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part IIIISSN 2056-5852.
24. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно- методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
25. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
26. КБ Холиков. Метод динамических адаптации студентов музыкантов к учебному плану в общеобразовательной школе. Science and Education 4 (7), 390-395
27. КБ Холиков. Музыкально компьютерные технологии,«музыкальный редактор» в науке и образовании Узбекистана. Science and Education 4 (7), 130-141
28. КБ Холиков. Звуковой ландшафт человека и гармоническая структура головного мозга. Science and Education 6 (1), 21-27
29. КБ Холиков. Методы исследования через магнитоэнцефалограммы и электроэнцефалограммы психофизиологии в музыкию Science and Education 6 (1), 15-20
30. КБ Холиков. Особенности организации самостоятельной работы студентов при овладении курсом методики музыкального образования. Science and Education 4 (7), 371-377